3-shaklda detal devorlarining qalinligini chizg'ich va kronsirkul va ichki o'lchagich (nutromer) (a) asboblari bilan o'lchanishi ko'rsatilgan. «S» o'lcham kronsirkul bilan o'lchangan b o'lchamdan, chizg'ich yordamida o'lchangan b_1 o'lchamning ayirmasiga tengdir, ya'ni $b - b_1 = S$; L o'lcham esa chizg'ich bilan o'lchangan h va h_1 o'lchamlarni ayirmasiga teng bo'ladi ($h - h_1 = L$). Aylana diametrlari ichki o'lchagich asbob bilan o'lchanadi.

2-
b



shakl,

2-shakl, v



Ассигн. 2398

2-shakl, g

3-shakl

2. O'lchash asboblari ishlatish.


Ishlab chiqarish jarayonida buyumlarning chizmalarida va texnik talablarida belgilangan o'lchamlarini va sifatlarini ta'minlash, shuningdek brak mahsulot chiqishining oldini olish uchun barcha sanoat korxonalarida o'lchash asboblari yordamida texnik nazorat amalga oshiriladi. Buyumlarning o'lchamlari mo'tadil harorat (20 gradus)da bir o'lchovli yoki universal asboblari yordamida o'lchanadi.

O'lchash asboblari quyidagilar kiradi:



1. Po'lat lineyalar va ruletkalar;
2. Kronsirkul;
3. Nutromer;
4. Burchak o'lchagich;
5. Shtangensirkul;
6. Mikrometr va boshqalar.

Po'lat lineyalar - uncha katta bo'lmagan uzunliklarni o'lchash uchun ishlatiladi. Ularning uzunligi 150 mmdan 1000 mmgacha bo'ladi. Katta uzunliklarni o'lchash uchun esa **ruletkalar** ishlatiladi.


Shtangensirkul hamda diametrlarini ishlatiladi



shqi to'g'ri chiziqli o'lchamlari
lik va balandliklarini o'lchashda



Rezbalar profilining burchagi va rezba kadamlari maxsus rezbali shablonlar to'plami - *Rezbomer* yordamida aniqlanadi. Bu to'plamda standart rezbalar profiliga va qadamiga mos keladigan tishli plastinkalar jamlangan bo'ladi.



AMALIY MASHG'ULOT

YIG'MA BIRLIK CHIZMALARINI CHIZISH QOIDALARI. YIGMA BIRLIK CHIZMALARIDA SODDALASHTIRISH VA SHARTLILIKLAR. QIRQIM VA O'LCHAMLAR. SPESIFIKATSIYA. UMUMIY KO'RINISH CHIZMALARINI O'QISH, DETALLARGA AJRATIB CHIZISH TARTIBI

Reja

1. Yig'ish chizmalarini chizish tartibi va ularni hujjatlashtirish
2. Yig'ish chizmalarini o'qish va ularni detallarga ajratib chizish

Adabiyotlar: A1; A4; Q5; Q7; Q10.

Tayanch so'z va iboralar: *yig'ish chizmalari, spesifikasiya, yig'ma birliklar, detal.*

1 Yig'ish chizmalarini chizish tartibi va ularni hujjatlashtirish

Bu ma'ruzada bitta detal emas, balki tarkibida bir necha detallar bo'lib, ular o'zaro birikib biror ish bajaruvchi buyum ko'rinishiga kelishi umumiy ko'rinishi,

ularning yig'ish chizmalarini tuzish va ularni hujjatlashtirish to'g'risida so'z yuritamiz.

Bunday buyumlarni ishlab chiqarish uchun GOST 2.102—68 ga muvofiq konstruktorlik hujjatlari tuziladi. Bu hujjatlar loyihalash va ish hujjatlariga bo'linadi. Loyihalash hujjatlariga umumiy ko'rinishdagi chizma taalluqli bo'lib, unda buyumlarning tuzilishi va ular tarkibiga kiruvchi kislmlarning o'zaro birikib harakat qilish qoidalari kabi ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari umumiy ko'rinish chizmalari buyumlardagi ayrim detallarning chizmalarini tuzishda asos hisoblanadi. Ish hujjatlari bo'yicha buyumlar ishlab chiqarilib, bular tarkibiga detallarning ish chizmalari, yig'ish chizmalari va spsifikatsiyalar kiradi. Yig'ish chizmalariga spsifikatsiya bilan birga buyumlar, yig'ish birliklarining chizmalari kiradi. Yig'ish chizmalari buyumlar tarkibiga kiruvchi detallarning eskizlariga yoki ularning ish chizmalariga asosan tuziladi. Yig'ish chizmalari kuyidagi ma'lumotlarga, chunonchi, yig'ish birligi chizmalarining tasviriga kerakli bo'lgan ko'rinishlarga, qirqimlar va kesimlarga, o'lchamlar, hisoblash natijasida aniklangan ma'lumotlarga, texnikaviy talablarga, ajraladigan va ajralmaydigan birikma turlariga, buyum tarkibiga kiruvchi detallarning raqam belgilariga, buyumning asosiy vazifasiga, ishlash qoidasiga konstruktiv tuzilishga, ulanish, o'rnatish, gabarit o'lchamlar va boshqa kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Oliy o'quv yurtlarida talabalar amaliy mashg'ulotlarda yig'ma birliklar (uzellar) ning o'ziga karab yig'ish chizmalarini tuzadilar. Yig'ma birlik chizmalarini tuzishdan avval buyum bilan tanishib chiqiladi, ya'ni uning vazifasi, detallarning o'zaro birikish holatlari, ishlash usuli va detallarning tashki, ichki kiyofalarining tuzilishi aniqlanadi. So'ngra buyum tarkibiga kiruvchi detallar bo'laklarga ajratilib, ularning eskizlari tuziladi. Detailarning eskizlariga muvofiq yig'ish chizmalarini quyidagi tartibda tuzish tavsiya etiladi:

1. Kerakli bo'lgan tasvirlar soni belgilanadi.
2. Buyumning gabarit o'lchamlariga nisbatan format va masshtab tanlanadi.
3. O'q va kontur chiziqlari chiziladi.
4. Kerakli bo'lgan kesim va qirqimlar beriladi.
5. O'lcham chiziklari chiziladi, keyin gabarit o'lchamlari (uzunlik, balandlik, kenglik), biriktirish va o'rnatish o'lchamlari qo'yiladi.
6. Buyum tarkibiga kiruvchi barcha detallarning tartib nomerlari belgilanadi.
7. Chizmaning to'g'riligi tekshirib chiqiladi.
8. Chizmaning asosiy yozuvi va uning spsifikatsiyasi to'lg'aziladi.


So'ngra M markali qalam bilan chiziqlarning yo'g'onligini saqlagan holda asosiy chiziqlar ustidan yurgizib chiqiladi. Yig'ish chizmalaridagi ayrim detallar GOST 2109—73 ga muvofiq shartliliklar va soddalashtirishlardan foydalanib chizilishi, ya'ni ularda faskalarni yumaloqlangan joylarni, yo'nilgan qismlarni o'yiqlarini, o'ymakorlik qismlarini va sterjen bilan teshiklar orasidagi bo'shliqlarni ko'rsatish shart emas. Kopqoq, g'ilof va chamberaklar ham ko'rsatilmaydi. Siquvchi vtulka detali ma'lum masofada ko'tarilgan holda chizilishi mumkin (1-shakl). Yig'ish chizmalarida bajarilgan qirkim va kesimlarda

shtrixovkalar yonma-yon turgan detallar uchun qarama-qarshi vaziyatda chiziladi. Ammo bir xil detallarning barcha ko'rinishlarida shtrixovkaning yo'nalishlari saqlanib koladi. Yig'ish chizmalaridagi har bir detalning nomeri spesifikatsiya bilan bir xil bo'lishi lozim. Detallarga ko'yilgan tartib raqami tasvirda nuqta bilan tugallab chiqarilgan chiziqni tokcha ko'rinishda tasvirlab belgilanadi.

Birikuvchi detallar uchun tartib raqamini (bolt, gayka, shayba) umumiy bitta tokcha chizig'ida ko'rsatish mumkin. Detallardagi tartib raqamlarining raqam o'lchamlari detalning chizmalaridagi raqam o'lchamlaridan bir-ikki barobar katta bo'lishi kerak. Chizmalardagi tartib raqamlari qoidaga muvofiq bir marta qo'yilishi lozim.

Yig'ish chizmalariga kiruvchi barcha qismlar uchun spesifikatsiya tuziladi, u yozuv hujjati bo'lib, alohida A4 formatda asosiy yozuv bilan birga bajariladi. Bunda buyum tarkibiga kiruvchi barcha detallar, standartli buyumlar va materiallar ma'lum ketma-ketlik bilan belgilanadi. O'quv jarayonlarida spesifikatsiya bilan yig'ma chizma bitta yoki alohida (A₄) formatlarda bajarilishi mumkin.

Yig'ish chizmalari tarkibiga kiruvchi qo'zg'almas va qo'zg'aluvchi birikmalarda buyumlarning zich yopilishi, ya'ni par, gaz va suyuqliklarni qopqoq yoki birikmalar orasidan tashqariga chiqmasligi uchun zichlagich qurilmalar qo'llanadi. Shuni aytish kerakki, noto'g'ri tanlangan zichlagich detallarning ishqalanishi natijasida qizib, detalning yemirilishiga olib keladi. Bu esa detallarning mustahkamligini kamaytiradi. Eng oddiy zichlagichlardan biri salnikli zichlagichdir. Yig'ish chizmalaridagi vtulka va shpindel orasidagi bo'shlikka kanop tola, jundan kilingan iplar, asbest, charm yoki rezinalardan qilingan halqalar joylashtiriladi va ular salnik kopqog'i yordamida siqiladi. Natijada tiqma zichlashib, vtulka va shpindel sirtlariga yopishib turadi (103-shakl).



1-
shakl

1-
shakl,
larda


a, b, v

salnikli zichlagich qurilmalaridan bir nechtasining tuzilishlari tasvirlangan. Chizmalarda salnik vtulkasi uyaga 2—3 mm kiritilgan

vaziyatda ko‘tarib, gayka esa qopqoqqa rezbaning 2—3 o‘rami bo‘yicha buralgan vaziyatda tasvirlanadi.

Suyuklik, gaz va parlarni o‘tkazish yoki yopib ko‘yish maksadida, buyumlarda klapan bilan shpindellarni birikmalaridan foydalaniladi (2-shakl, a, b, v, g). Bunda klapanlar shpindellar uchiga qizdirib, simni kistirib (skoba shaklida) (2-shakl, a, g) yoki shpindelni pastga qaragan uchi rezbali vtulka klapan bilan mahkamlanadi (2-shakl, b). Mashinasozlik chizmachiligi dasturiga ko‘ra o‘kuvchi biror uzelni asliga karab, uning tarkibiga kiruvchi detallarning eskizlarini yoki ish chizmalarini hamda shu chizmalar asosida yig‘ish chizmasini bajarishi lozim. Lekin darslikda yig‘ma

2-shakl



aslini


asl

uning

birlikning (uzelning)
berish imkoniyati
bo‘lmasligi sababli 3-
shaklda ko‘rsatilgan
patronning aksonometrik
tasvirini shartli ravishda
nusxa deb faraz kilib,

yig‘ma chizmasini ortogonal proeksiyalarda tuzish mumkin. Uzelning fazoviy tasviriga qarab fikran detallarni bir-birlaridan ajratish va ularning soni, nomi, materiallari va tartib raqamlari hamda standart detallar aniqlanadi. GOST 2102—68 ga muvofiq yig‘ma chizmaning spesifikasiyasi tuziladi va detallarning o‘zaro birikish qonuniyatlari bilan tanishib chiqiladi. Patron buyumlarda kvadrat shaklidagi teshiklar parma bilan o‘yish uchun qo‘llanadigan maxsus uch tishli parmani mahkamlash uchun qo‘llanadi. Uch tishli parmaning silindrsimon tomoni patrondagi vtulka 1 ga mahkamlanadi. Vtulka 1 esa stakan 3 ga o‘rnatiladi va ular vint 8 bilan mahkamlanadi. Stakan 3 dagi o‘yiqqa diska 5 ning chizig‘i joylashib biriktiriladi. Diska 5 ning ikkinchi tomoni xvostovik 6 detalning o‘yiq qismiga kirib harakat qiladi.


Xvostovik 6 ning ikkinchi tomoni standart konussimon sirtidan iborat bo‘lib, stanokka birlashtiriladi. Teshiklarni parmalash jarayonida o‘k bo‘yicha yo‘nalgan kuch disk 6 ga joylashgan sharik 4 orkali xvostovik 6 ga ta’sir qiladi. Shuning uchun 2 va 6 detallar vint 7 bilan mahkamlanadi.




3-
shakl
Endi

patronning tarkibiga kiruvchi detallarning chizmalari bilan tanishib chikaylik:

1. Xvostovik detal aylanish sirtidan iborat bo'lib, asosan silindr va konus sirtlarining birikmasidan iborat. 4-shaklda detal 6 ning chizmasi frontal va profil ko'rinishlarda ko'rsatilgan. Detaldagi o'yiqlar shaklini aniqlash uchun mahalliy qirqim berilgan.




4-shakl



5-shakl

6-shakl



2. 5-shaklda kojuxning P_2 va P_z tekislikdagi ko'rinishlari tasvirlangan. Detaldagi ichki teshiklar va rezbalarni tasvirlash frontal qirqim berilgan.


uchun

3. Vtulka 1 aylanish sirtidan iborat bo'lib, chizmada P_2 va P_3 tekislikdagi ko'rinishlari tasvirlangan (6-shakl).

4. 7-shaklda stakan 3 ning chizmasi berilgan. Detalning ichki qismlarini anik ko'rsatish uchun qirqim berilgan.

5. DISK 5 chizmasida bosh va chap ko'rinishlarda tasvirlangan (8-shakl), mahalliy qirqim yordamida teshiklarning ichki sirtlari anik qilib ko'rsatilgan. Standart 7, 8 detallarning asosiy o'lchamlari standart bo'yicha aniqlanib, so'ngra uning chizmasi chiziladi.


7-shakl





9-shakl, b

Nihoyat soʻnggida spetsifikatsiya va asosiy yozuvlar toʻlgʻaziladi (9-shakl, b).


[illegible]

10-shakl,
a

10-shakl, b


2 Yig'ish chizmalarini o'qish va ularni detallarga ajratib chizish

Bir necha detallarning yig'ilgan holatdagi chizmalarini o'rganish va o'kish usullaridan biri uning har bir detalini alohida-alohida ajratib olib ish chizmasini chizishdan iborat. Detaillarning ish chizmalarini chizishdan avval, yig'ish chizmalari tarkibiga kiruvchi xar bir detalning geometrik tuzilishi, nomi, materiali, vazifasi, shuningdek, ko'rinishlar soni, qirqim, kesim va o'lchamlari bilan tanishib chiqiladi. Bundan tashqari detallarning o'zaro birikish usullarini aniqlab, berilgan qirqimlardagi shtrix chiziklarning qarama-qarshi chizilganligidan foydalanib, har bir detalning chegara chizig'ini aniqlash tavsiya etiladi. GOST 2.301—68 standartga muvofiq formatlar tanlanadi va yig'ish chizmasidagi masshtabga rioya qilingan holda detallarning ish chizmalari chiziladi. 10-shaklda suyuqlik va gazlarning harakat yo'nalishlarini belgilab turuvchi gaz jo'mragining yig'ilgan holatdagi chizmasi P_1 , P_2 va P_3 tekisliklardagi ko'rinishlarda tasvirlangan. Yig'ish chizmasining bosh ko'rinishiga berilgan qirkim tiqin 5, korpus 2 va dasta 1 larning o'zaro birikishlari, shuningdek



shakl

ularning geometrik tuzilishlarini aniqlashga imkon beradi. Shayba 3 va gayka 4 korpus va tiqinlarning zich bo'lib birikish holatlari ko'rsatilgan. 10-shakl, b da yig'ish chizmasining spesifikasiyasi berilgan. Detallarning ish chizmalarini oddiy detallardan boshlash maqsadga muvofiqdir. 11- shaklda eng oddiy detal — shayba 3 ning ikki ko'rinishdagi chizmasi tasvirlangan bo'lib, unda detalning ichki tuzilishidagi bo'shlikni ko'rsatish uchun qirqim berilgan. 12-shaklda dasta 1 ning ikki (P_1 , P_2 tekislikdagi) ko'rinishdagi ish chizmasi ko'rsatilgan. Dastaning bir uchidagi to'rt burchakli bo'shliqni ko'rsatish uchun bosh ko'rinishga mahalliy qirqim berilgan.



13-
shakl

15-shakl, a

[illegible]


15-shakl, b

13- shaklda tiqinning uch P_1 , P_2 , P_3 tekisliklardagi ish chizmasi tasvirlangan. Suyuqlik va gaz o'tadigan teshikni ko'rsatish maqsadida chizmaning bosh ko'rinishiga mahalliy qirqim berilgan. Berilgan kirkim tiqinning ichki shaklini va uning o'lchamlarini aniqlashga imkon beradi. Chizmani chapdan P_3 tekislikdagi ko'rinishi esa konussimon o'yilgan teshikning shaklini tasvirlaydi.


14- shaklda jo'mrakning yig'ish chizmasidan korpus 2 ni alohida ajratib olib, uning P_1 , P_2 , P_3 tekisliklardagi chizmalari ko'rsatilgan. Detalning ichki geometrik tuzilishlarini aniqlash uchun chizmaning frontal va profil proeksiyalariga qirqim berilgan.

15-shakl, a da ventilning yig'ma chizmasining gorizontal, frontal va profil proeksiyalari tasvirlangan. Ma'lumki, ventil trubalardan o'tuvchi par, gaz, suv va boshqa suyuqliklarni rostlab turish uchun ishlatiladi.


15- shakl, b da yig'ma chizmaning spesifikasiyasi berilgan. Ventil tarkibiga kiruvchi korpus 1 rezbali teshikdan iborat bo'lib, unga shpindel 3 burab kiritilgan.



17-shakl



18-shakl



19-shakl

Shpindelning pastki qismidagi uyaga rezba o'yilgan bo'lib, klapan 2 bilan mahkamlangan. Gayka 6 korpus 1 ga rezba yordamida burab biriktirilganda, gayka vtulka 5 ning ezishi natijasida tiqin 7 zichlanadi. Chizmada ventil yopiq holatda tasvirlangan. Suyuqlik yoki gaz o'tkazuvchi trubadan (chizmada ko'rsatilmagan) korpus 1 ga tushadi. Shpindel 3 yordamida klapan 2 birga yukoriga ko'tariladi. Natijada korpusning pastki qismidagi teshik ochiladi, suyuqlik esa shu teshik, ya'ni korpusning ikkinchi teshigi orkali trubalarga tarqaladi. Ventil tarkibiga kiruvchi korpus 1, shpindel 3, gayka 6 va klapan 2 detallarning ish chizmalari 16, 17, 18, 9-shakllarda tasvirlangan.

AMALIY MASHG'ULOT

AUTOCAD TIZIMINING GRAFIK VOSITALARI. ISHCHI FAZOLAR VA INTERFEYS ELEMENTLARI.

- 1 AutoCAD grafik tizimi haqida ma'lumot**
- 2 AutoCAD grafik sistemasidagi oddiy primitivlar.**
- 3 Murakkab primitivlar**

Tayanch so'z va iboralar: *AutoCAD, grafik, SAPR, mashinada chizish, Kompas programmasi.*

Adabiyotlar: A2; A3; Q3; Q4.

AvtoCAD haqida ma'lumot

Chizma taxtasi, reyshina, sirkul'... loyixachining qulmani oldingi davrlarda qolib ketadi. Hozirgi muxandislar Kompyuter oldiga o'tirib olib, ishchi stolida «sichqon» ni harakatlantirib, onda-sonda klaviaturadagi tugmachalarni bosib yaratayotgan konstruksiyalarining modelini chizadi.

Hozir dunyoning ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlarida avtomatik loyihalash sistemalaridan foydalanish oddiy bir xol bo'lib qolgan. Amerikaning Autodiskink firmasi AvtoCAD avtomatik loyihalash sistemasini yaratgan va rivojlantirib kelmoqda.

AvtoCAD grafik ishlarini avtomatlashtirishni shaxsiy Kompyuterlarda DOS operasion sistemasida va Windows sistemalarida amalga oshirishning imkonini beradi. qo'lda chizish mumkin bo'lgan har qanday rasm AvtoCADda yuqori tezlikda, o'z vaqtda va oson bajariladi.

AvtoCADning ko'p qirrali imkoniyatlaridan me'morchilik va qurilishda, elektronikada, mashinasozlikda, aerokosmika sanoatida, nashriyot va dizayn sohalarida keng foydalanish mumkin.

AvtoCAD paketini murakkab va amaliy masalalarni yechishda tehnik konstruktor, dizaynerlar qo'llashi uchun juda qo'l keladi. AvtoCAD yordamida ikki va uch o'lchovli fazo sistemalarida chizmalar chizish mumkin. AvtoCADda ikki ulchovli sistemadan uch o'lchovli fazo sistemasiga o'tish va uning aksini qilish imkoniyatlari mavjud.

AvtoCADda tekislik va sirtlar hosil qilish, tekislik va sirtlardan geometrik modellar tayyorlash, geometrik modellarni xohlagan tomondan qo'rinishlarini hosil qilish va kerakli joylardan qirqimlar berish, kerakli ranglarda ularni tasvirlash, tasvirning afin almashtirishlarini hosil qilish, ya'ni uni surish, aylantirish, to'ntarish va harakatlantirish mumkin.

AvtoCAD murakkab sistema. Shuning uchun oddiy chizmalardan ishni boshlash kerak. Avvalo AvtoCAD buyrug'lari bilan tanishib chiqish kerak. Albatta, birinchi o'qishingizda ularga unchalik tushunmasligingiz mumkin. Buning uchun tushkunlikka tushish kerak emas. Biroz vaqtdan so'ng yana o'qing. Kompyuterni yoqib AvtoCAD ni ishga tushirib, oddiy chizmalar chizishga harakat qiling. Masalan: RISUY buyrug'ini bering. KRUG buyrug'ini tanlab, aylanani radius yordamida chizish uchun ekranning biror nuqtasini tanlang. Ekrandagi ikki kesishuvchi perpendikulyar to'g'ri chiziqli kursorni biroz harakatlantira boshlang. Ekranda tanlangan nuqtangizdan aylanalar o'qib chiqayotgandek tuyuladi. Sichqonni to'xtating va tugmachasini bosing. Ekranda aylana hosil bo'ladi. Shu kabi boshqa buyruqlar ustida ishlashga kirishing. Natijada primitivlardan foydalanish sirlarini egallay boshlaysiz. AvtoCADda tahrirlash buyruqlaridan foydalanishingiz mumkin.

Ushbu kitobda AvtoCAD paketining o'zidagi AvtoCADni ishlatish uchun rus tilida yozilgan qo'llanmadan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilindi. O'rganilayotgan AvtoCADdagi barcha buyruq nomlari rus tilidagi uchun keltirilganligicha qoldi.

Har qanday rasmni qismlarga bo'lish mumkin. Bu qismlar AutoCAD tizimida primitiv nomini olgan.

Primitiv turlari.

Primitivlar sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Sodda primitivlarga quyidagi ob'ektlar kiradi:

- Tochka Nuqta
- Otrezok Kesma
- Krug (okrujnost) Aylana
- Duga Yoy
- Pryamaya To'g'ri chiziq
- Luch Nur
- Ellips Ellips
- Splayn Splayn
- Tekst Matn

Murakkab primitivlarga poliliniya, multiliniya, multitekst, razmer, vo'noska, dopusk, shtrixovka, blokka olish yoki blokni uzatish, atribut va rastrli tasvirlar kiradi.

KESMALAR.

Kesmalar chizishni boshlaymiz. Buning uchun klaviatura yordamida OTREZOK (LINE) buyrug'ini kiriting. Ushbu buyruqni tushuvchi menyu **Risovanie** (Draw) yoki uskunalar paneli **Risovanie** (Draw) dagi birinchi turgan tugmani bosish bilan ham kiritish mumkin.



1-rasm. OTREZOK (LINE) buyrug'iga mos tugma.

AutoCAD tizimi buyruqlar qatorida birinchi so'rovni beradi (bundan buyon ikki xil variantda so'rov keltiriladi: Ikkinchi qatorda ruscha versiyasi formasida, Uchinchi qatorda inglizcha versiyasi formasida, Birinchi qatorda esa so'rovning o'zbekcha qisqacha ma'nosi beriladi).

Birinchi nuqta:

Eslatma: AutoCAD buyruqlar qatoridagi savolgagina javob kutadi. Boshqa buyruqqa o'tish uchun <Esc> klavishi bosiladi.

Kesmaning birinchi nuqtasini berish grafik ekranning ko'rinadigan qismiga sichqon yordamida ko'rsatish va sichqonning chap tugmasini bosishdir. Nuqtani tanlash chog'ida koordinatalar schyotchigidan foydalanish mumkin. Birinchi nuqta berilishi bilan AutoCAD ning keyingi so'rovi chiqadi:

Keyingi nuqta yoki [inkor etish]:

(Specify next point or [Undo]:)

So'rovning qismlari kvadrat qavsda berilgan. Bu degani ekranda keyingi nuqtani (oxirgi nuqtasini) ekranda ko'rsatish yoki opsiyani (buyruqning keyingi qadamiga o'tish) tanlanishi mumkin. Opsiya sifatida AutoCAD **Otmenit** (Undo) inkor etishni taklif qilyapti. Opsiyadan foydalanish uchun klaviatura yordamida yuqori yoki pastki registrda uni kiritish va <Enter> bosiladi. Agar opsiya nomida bosh harflari bo'lsa, shu harflarini terish yetarlidir (hozirgi holatda O (U) yoki o (u)).

Agar **Otmenit** (Undo) opsiyasini tanlasangiz, unda AutoCAD oldingi tanlangan nuqtani inkor etadi va yana birinchi nuqta berilishini so'raydi.

Agar sichqon yordamida keyingi nuqta ko'rsatilsa grafik ekranda kesma paydo bo'ladi (2.2-rasm), kesma ko'rsatilgan ikki nuqtani birlashtiradi. Buyruq OTREZOK (LINE) shu bilan tugamaydi va so'rov paydo bo'ladi:

Keyingi nuqta yoki [Inkor etish]:

(Specify next point or [Undo]:)

Bunday so'rovning paydo bo'lishi, bitta buyruq bilan bir nechta kesma-siniq chiziqni chizish imkonini beradi. Ekranda uchinchi nuqtani ko'rsatgich. Keyingi so'rov quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Keyingi nuqta yoki [TutashtirishG'Inkor etish]:

(Specify next point or [CloseG'Undo]:)

Bu yerda **Otmenit** (Undo) opsiyasidan tashqari **Zamknut** (Close) opsiyasi paydo bo'ladi. Opsiylar " G' " simvol bilan ajratilgan bo'ladi. Agar klaviatura yordamida 3(S) kiritilsa va <Enter> bosilsa, AutoCAD yana bitta kesma chizadi. Kesmaning bir uchi oxirgi nuqtada ikkinchi uchi esa birinchi kesma uchida yotadi

Agar tutashtirishni xoxlamasangiz, kesma chizishni tuganmoqchi bo'lsangiz, unda <Enter> ni bosing. Natijada AutoCAD sizdan yangi buyruqni kutadi:
Komanda: (Command:).

Buyruqni tugatish uchun, sichqon ko'rsatkichi grafik ekranda turgan holda, sichqonning o'ng tugmasi bosiladi. Sichqon ko'rsatkichi turgan joyda kontekst menyusi ko'rinadi (2.4-rasm). Kontekst menyusi-bu ixcham uskuna bo'lib, ishning keyingi qadamini tanlashga yordam beradi. U har qanday holda ham sichqonning o'ng tugmasini bosib chaqirish mumkin.

Kontekst menyusining tarkibi ayni vaqtda bajarilayotgan buyruqqa bog'liq. menyuda OTREZOK (LINE) buyrug'ini davom ettirish variantlari keltirilgan:

Enter-buyruqni tugatadi.

Prervat (Cancel)-buyruq ishini uzib qo'yadi.

Zamknut (Close) va **Otmenit** (Undo)-yuqorida ko'rib o'tiladi.

Panoramirovanie (Pan) va **Zumirovanie** (Zoom)-(ishlayotgan buyruqni vaqtincha to'xtatadi) bu buyruqlar masshtabni hamda tasvir o'lchamini ekranda o'zgartirish kabi ishlarni tashkil etadi. O'zgartirishlar 2.4 bo'limda ko'rib chiqiladi.

Agar ikkinchi nuqtaning o'rniga <Enter> bosilsa, xech qanday ob'ekt qurlisidan kesma chizish tugatiladi. Birinchi nuqtani bermasdan <Enter> bosilsa, unda oldin chizilgan ob'ektning oxirgi nuqtasi tanlaydi.

Agar rasmda ob'ekt (kesma, yoy, poliliniya) bo'lmasa Birinchi nuqtani kiritida quyidagi so'rov chiqadi:

Davom etkazish uchun yoy ham, kesma ham yo'q.nuqtani kiriting:

No line or arc to continue. Specify first point:

Oldingi qurilgan ob'ektning oxirgi nuqtasi bo'lmasa (masalan, tekst (matn)), u holda AutoCAD undan oldingi ob'ektlar-kesma, poliliniya va yoylarni topguncha axtaradi. Oxirgi topilgan ob'ekt kesma yoki poliliniya to'g'ri chiziqli segmentdan iborat bo'lsa, tizim keyingi nuqtani so'raydi. Topilgan ob'ekt yoy yoki poliliniyaning yoy segmenti bo'lsa, AutoCAD shu yoyni davomi bo'luvchi kesma quradi va so'rov chiqaradi:

Kesmaning uzunligi:

(Length of line:)

Ushbu savolga klaviatura yordamida son kiritamiz yoki vaqtinchalik ekranga nuqta qo'yamiz. AutoCAD oldingi nuqtadan vaqtinchalik qo'yilgan nuqtagacha bo'lgan masofani hisoblaydi. Ikki xil usul-kiritilgan son yoki ikki nuqta orasidagi masofa (millimetr uchun) kesmaning uzunligi bo'ladi. Kesma yoyga urunma holda o'rnatiladi.

OTREZOK (LINE) buyrug'i yordamida bir va bir nechta ketma-ket joylashgan kesmalar chizish mumkin. Buyruqning tugatilishi <Enter> klavishini bosish yoki opsiyadagi *Zamknut* opsiyasini tanlash bilan amalga oshiriladi.

AutoCAD 2000 tizimida, ish jarayonida, opsiyalarni tanlash to'g'ri kelib qoladi (OTREZOK (LINE) buyrug'idagi **Otmenit** (Undo) va **Zamknut** (Close)). Unda sichqonning o'ng qulog'ini bosish va chaqirilgan kontekst menyusidan sichqon yordamida opsiya tanlanadi. Bundan tashqari kontekst menyusida yordamchi operatsiyalarni bajarish imkoniyatlari bo'lishi mumkin.

Har qanday yasalgan kesma uchlarining koordinatalari, qiyalik burchagi va boshqa informatsion ma'lumotlarni olish mumkin.

AMALIY MASHG'ULOT

OB'EKTNING XUSUSIYATLARI VA ULARNI TAHRIRLASH.

OB'EKTLARNI BOG'LASH.

- 1 «Steret »-«O'chirish» buyrug'i va undan foydalanish algoritmi;
- 2 «Kopirovat »-«Nusxa olish» buyrug'i va undan foydalanish algoritmi;
- 3 «Massiv»-«Chizmada bir xil elementlarni ko'plab tasvirlash» buyrug'i va undan foydalanish algoritmi;
- 4 «Zerkalo»-«Ko'zgu» buyrug'i va undan foydalanish algoritmi;
- 5 «Sdvig»-«Surish» buyrug'i va undan foydalanish algoritmi.

Tayanch so'z va iboralar: *massiv, ob'ekt, xususiyat, nusxa, tayanch.*

Adabiyotlar: A2; A3; Q3; Q4.

1. «Steret »-«O'chirish» buyrug'i «Sichqon» yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasida «Ob'ektni ko'rsating» so'rovi paydo bo'ladi Bu so'rovga o'chirilishi kerak bo'lgan chiziqlar «Sichqon» yordamida aloxida-aloxida kvadrat nishoncha bilan yoki bir yula to'g'ri to'rtburchak ochib ajratiladi.

2. Ajratilgan ortiqcha chiziqlar «Enter» bilan qayd etilib ekrandan yo'qotiladi-o'chiriladi.

5.2. Kompyuterda grafik axborotlarni bajarish jarayonida ularning ayrim elementlaridan nusxa olib, boshqa joyga qo'yishda «Kopirovat » - «Nusxa olish» buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. «Kopirovat» - «Nusxa olish» buyrug'i «Sichqon» yordamida yuklanadi. Muloqotlar darchasida kiyidagi so'rov paydo bo'ladi: «Ob`ektni ko'rsating». Bu so'rovga nusxasi olinishi kerak bo'lgan ob`ekt-chiziqlar «Sichqon» yordamida aloxida-aloxida kvadrat nishoncha bilan yoki bir yula to'g'ri to'rtburchak ochib ajratiladi. va «Enter» bilan kay etiladi.

2. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi «Tayanch nuqtasini ko'rsating yoki [Multiple]:» so'rovi paydo bo'ladi. Agar ob`ektning nusxasi tasvirning bitta joyiga olib borib qo'yiladigan bo'lsa, bu so'rovga uni biror nuqtasi ko'rsatiladi. Agar ob`ektning nusxasi tasvirning bir nechta joyiga olib borib qo'yiladigan bo'lsa, bu so'rovga ko'p nusxa olish qo'shimcha buyrug'i – «Multiple»ning birinchi xarfi terib kiritiladi.

3. Ob`ektning «Sichqon» yordamida bog'langan tayanch nuqtasi chizmaning kerakli joyiga keltirilib, uni chap tugmasi bilan qayd etiladi. Natijada nusxasi ko'chirilib olingan ob`ekt yangi joyda tasvirlanib qoladi. Agar ko'p nusxa olish qo'shimcha buyrug'i yuklangan bo'lsa, ob`ektni tayanch nuqtasi chizmaning kerakli joylariga birin-ketin keltirilib, qayd etiladi va uning ko'plab tasvirlari yasaladi.

5.3. «Massiv»-«Chizmada bir xil elimentlarni ko'plab tasvirlash» buyrigidan foydalanib chizmaning biror elementini-«Ob`ekt»ini to'g'ri to'rtburchak soxaga katorlar va ustunlar ko'rinishida yoki aylana bo'ylab berilgan tuldirish burchagida uning tasvirini teng burchak ostida ko'plab yasash mumkin. «Ob`ekt»ni to'g'ri to'rtburchak soxaga katorlar va ustunlar ko'rinishida ko'paytirib tasvirlashga «R»-«Tugri to'rtburchak» massiv va uni aylana bo'ylab teng burchak ostida ko'plab tasvirlashga «P»-«Kutib» massiv deb ataladi.

Bu buyruqdan foydalanib ekrandagi biror «Ob`ekt»ni R va P massivdagi ko'paytirilgan tasvirlari quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. «Massiv» buyrug'i «Sichqon» yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar qatorida quyidagi so'rov paydo bo'ladi:«Selekct objects:» -«Ob`ektni ko'rsating». «Ob`ekt» kvadrat nishoncha bilan «Sichqon» yordamida ko'rsatiladi va «Enter» bilan qayd etiladi.

2. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Enter the typt of aRRay [R. . . . P. . . .]:» - «Massiv turini kiriting». Massivning R yoki P turi kiritiladi va «Enter» bilan qayd etiladi. Masalan, massivning R turi kiritiladi.


3. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi:«Enter the numbeR of Rows:» - «Katorlar sonini kiriting». Masalan, u turt kator bulsin, 4 raqami teriladi va «Enter» bilan qayd etib kiritiladi.

4. Shunda muloqotlar qatorida navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Enter the numbeR of columns:»-«Ustunlar sonini kiriting». Masalan u oltita ustundan iborat bulsin, 6 raqami teriladi va «Enter» bilan qayd etiladi.

5. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Enter the distance between Rows:» - «Katorlar orasidagi masofani kiriting». Masalan u 25 mm bulsin, bu raqam teriladi va «Enter» bilan qayd etib kiritiladi.

6. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Enter the distance between columns:»-«Ustunlar orasidagi masofani kiriting». Masalan, u xam 25 mm bulsin, bu raqami teriladi va «Enter» bilan qayd etiladi. Natijada to'g'ri to'rtburchakli soxada «Ob`ekt»ning ko'paytirilgan 4 x 6 ta, ya'ni 24 ta tasviri ekranda paydo bo'ladi (46-rasm).

Endi qutb (P) massividan foydalanib biror «Ob`ekt»ning ko'paytirilgan tasvirini yasash algoritmini kurib chikamiz: «P» massiv uchun xam yuqorida keltirilgan «R» massivning bajarish algoritmini 1 va 2-amallari bir xil bo'ladi. 2-amaldagi «Massiv turini kiriting» so'roviga, massivning qutb - «P» turi kiritiladi va «Enter» bilan qayd etiladi.



1-rasm


3. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Specify center point of aRRay:»-«Massiv markazini ko'rsating». «Sichqon» yordamida massiv markazi kusatiladi va qayd etiladi.

4. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Enter the numbeR of itens in the aRRay:» - «Massivdagi «Ob`ekt»lar sonini kiriting». Masalan, uni ko'paytirilgan tasviri 9 ta bulsin. 9 raqami teriladi va «Enter» bilan qayd etiladi.

5. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Specify the angle tofill:»-«Tuldirish burchagini kiriting». Masalan u 360 bo'lsa, bu raqam teriladi va «Enter» bilan qayd etiladi.


6. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Rotate aRRay objects:»-«Massivda ob`ektni burish». Bu so'rovga, zaruriyatga kura «Ya-Yes»-«Ob`ektni burishga» yoki «Yuk-No»-«Ob`ektni burmas-likka», Y yoki N xariflaridan biri

teriladi va «Enter» bilan qayd etiladi. Natijada qutb massivida aylana bo'ylab joylashgan «Ob`ekt»ning 9 ta tasviri ekranda paydo bo'ladi (47-rasm).



2-rasm

AutoCAD 2002 dasturida «Massiv» buyrug'i takomillashgan bo'lib, uning barcha ko'rsatkichlari bevosita «Massiv» darchasidan foydalanib quyidagicha kiritiladi (48-rasm):



3-rasm

1.  «Massiv» buyrug'i yuklanadi va ekranda «Massiv» darchasi paydo bo'ladi. Bu darchaning yuqori chap burchagida massiv turlari, to'g'ri to'rtburchak soxa-«Treugolniiy massiv» va kutib-«Polyarniy massiv» taklif etiladi.


Tugri to'rtburchak soxa-«Treugolniiy massiv» massivi quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. Taklif etilgan massivdan «Treugolniiy massiv»ining tugmasi «Sichqon» yordamida yuklanadi. «Stроки»-katorlar va «Колонки»-ustunlar yacheykalariga katorlar va ustunlar soni, masalan 5 va 10 raqamlari terib kiritiladi;

2. «Смещение строки» va «Смещение колонки» yacheykalariga katorlar va ustunlar orasidagi masofa qiymatlari *mm* larda kiritiladi, masalan 24 va 30 raqamlari.

3. «Massiv» darchasining yuqori chap burchagida joylashgan «Vibor ob`ekta» tugmasi yuklanadi. Ekranda paydo bo`lgan kvadrat nishoncha bilan tasviri ko`paytiriladigan element, masalan diametri 12 mm bo`lgan aylana ichiga chizilgan beshburchak bog`lanadi va «Enter» bilan qayd etiladi.

4. Shunda ekranda dastlabki «Massiv» darchasi paydo bo`ladi. Uning quyi ung burchagidagi «Prosmotr»-dastlabki kuzatish tugmasi yuklanadi. Shunda darcha ekrandan yo`qolib berilgan beshburchakning ko`paytirilgan, ya`ni 50 ta tasviri chizilib qoladi. Kuzatish natijasida bajarilgan massiv to`g`ri deb topilsa, kichik «Massiv» darchasidagi «Prinyat »-qabul kilmok tugmasi yuklanib, to`g`ri to`rtburchak soxa-«Treugolniy massiv»i ekranda bajariladi (49-rasm). Shunda kichik «Massiv» darchasi xam ekrandan yo`qolib qoladi.




4-rasm

Qutb-«Polyarno`y massiv»i quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. Taklif etilgan massivdan «Polyarno`y massiv»ining tugmasi «Sichqon» yordamida yuklanadi. «Tochka tsentra» yacheykasiga qutb markazining X va Y koordinatalari kiritiladi. Agar qutb markazini chizmadan olinsa, X va Y yacheykalarini ung tomonida joylashgan tugma yuklanadi. Shunda darcha yo`qolib berilgan chizmaga kaytiladi. Chizmada «Sichqon» bilan qutb markazi ko`rsatiladi va uning ixtiyoriy X va Y koordinatalari aniqlanib yacheykalarga yozilib qoladi (50-shakl).


2. «Obhee chislo punktov»-tasvirlarning umumiy soni yacheykasiga tasvirlar soni, masalan 9 raqami kiritiladi. «Ugol zalivki»-tuldirish burchagi yacheykasiga, masalan 360 raqami kiritiladi.



5-рasm

3. «Массив» darchasining yuqori chap burchagida joylashgan «Vibor ob`ekta» tugmasi yuklanadi. Ekranda paydo bo`lgan kvadrat nishoncha bilan tasviri ko`paytiriladigan element belgilanadi. Masalan diametri 12 mm bo`lgan aylana ichiga chizilgan beshburchak va uni qutb markazi bilan boglovchi chiziq birgalikda ajratiladi va «Enter» bilan qayd etiladi.

4. Shunda ekranda dastlabki «Массив» darchasi paydo bo`ladi. Uning quyi o`ng burchagidagi «Prosmotr»-dastlabki kuzatish tugmasi yuklanadi. Shunda darcha ekrandan yo`qolib berilgan beshburchakning ko`paytirilgan, ya`ni 9 ta tasviri chizilib qoladi. Bajarilgan qutb massivini kuzatib, bajarilgan massiv to`g`ri bo`lsa, kichik «Массив» darchasidagi «Prinyat» - qabul kilmok tugmasi yuklanib kutib massivi ekranda bajariladi (51-rasm).




6-рasm

5.4. Kompyuterda grafik axborotlarni biror chiziqqa nisbatan simmetrik tasvirlarini «Zerkalo»-«Ko'zgu» buyrug'idan foydalanib osongana yasaladi. «Zerkalo»-«Ko'zgu» buyrug'i quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. «Zerkalo»-«Ko'zgu» buyrug'i «Sichqon» yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasida «Ob'ektni ko'rsating» so'rovi paydo bo'ladi. Bu so'rovga simmetrik tasviri yasalishi kerak bo'lgan ob'ekt «Sichqon» yordamida aloxida-aloxida yoki to'g'ri to'rtburchak ochib bir yula xammasi kvadrat nishoncha bilan ajratiladi va «Enter» bilan qayd etiladi.

2. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi «Simmetriya ukining birinchi nuqtasini kiriting» so'rovi paydo bo'ladi. Bu so'rovga, suralgan nuqta kiritilgach, navbatdagi «Simmetriya ukining ikkinchi nuqtasini kiriting» so'rovi paydo bo'ladi.

3. Ikkinchi suralgan nuqta kiritilgach, sungi «Berilgan tasvir yo'qotilsinmi yoki yo'qotilmasinmi(Yes/No)» so'rovi paydo bo'ladi. Bu qo'shimcha buyruqlarni birortasini bosh xarfi kiritiladi. Agar Y xarfi kiritilsa, berilgan tasvir chizmadan yo'qolib, unga simmetrik bo'lgan tasvir paydo bo'ladi. Agar N xarfi kiritilsa, berilgan tasvir chizmada uz urnida qolib, unga simmetrik bo'lgan tasvir paydo bo'ladi. Kompyuter xar doim N xarfini taklif qiladi. Shuninig uchun ikkinchi so'rovga simmetriya ukining ikkinchi nuqtasini kiritib, «Enter» tugmasi yuklansa, berilgan chizmaga simmetrik bo'lgan tasvir, masalan berilgan ikki aylana, simmetriya uki-tasvirdagi to'g'ri chiziqqa nisbatan ikkita aylana chizilib qoladi .



7-rasm


5.5. «Sdvig»-«Surish» buyrug'idan foydalanib biror chizmani ekranning bir joyidan ikkinchi joyiga berilgan masofada o'ziga parallel xolda, bir va bir nechta tasvirlarini yasash mumkin. Ekrandagi biror kesmaga 25 mm uzaklikda o'ziga parallel bo'lgan kesmani bir yoki bir nechta tasviri bu buyruqdan foydalanib, quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. «Sdvig» - «Surish» buyrug'i «Sichqon» yordamida yuklanadi.

Muloqotlar qatorida quyidagi so'rov paydo bo'ladi: «Surish masofasini kiriting yoki [Through]:». Suralgan masofa, masalan 25 mm (mm lar yozilmaydi) terib kiritiladi va «Enter» bilan qayd etiladi. Shunda muloqotlar qatorida navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Surish ob'ekti tanlang or <exit>:».


2. Kesma kvadrat nishoncha bilan ajratiladi. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: «Surish nukasini va yo'nalishini belgilang».

3. Surish nuqtasi va tomoni kursor yordamida «Sichqon» bilan ko'rsatiladi va yuklanadi. Natijada kesmadan berilgan masofada unga parallel bo'lgan kesma chiziladi. 2 va 3-amallarni qayta-qayta bajarib, oraliklari berilgan masofaga teng va uzaro parallel bo'lgan bir nechta kesmalarni chizish mumkin. Bunda xar gal oxirgi chizilgan kesma surish ob'ekti sifatida olinadi(53-rasm).



8-rasm

Yuqorida o'tilgan chizmani taxrir qilish buyruqlaridan foydalanib 5-shakllarda keltirilgan tasvirlar bajaril-sin.



9-rasm



10-rasm

Tayanch iboralar:

Chizmani taxrir qilish, «Steret»-«O'chirish» buyrug'i, «Kopirovat»-«Nusxa olish» buyrug'i, «Massiv»-«Chizmada bir xil elementlarni ko'plab tasvirlash» buyrug'i, «Zerkalo»-«Ko'zgu» buyrug'i, «Sdvig»-«Surish» buyrug'i

AMALIY MASHG'ULOT

CHIZMALARDA O'LCHAMLAR QO'YISH. 3D O'LCHAMLI FAZODA ISHLASH.

- 1 «Razmeri»-«O'lchamlar» qo'yishga tayorgarlik kurish tartibi;**
- 2 «Razmeri»-«O'lchamlar» qo'yish buyrug'i va uning algoritmi.**

Tayanch so'z va iboralar: *o'lcham, fazo, liniya, menyu, SAPR, ob'ekt.*

Adabiyotlar: A2; A3; Q3; Q4.


«Razмеры»-«O'lchamlar» buyrug'idan foydalanib geometrik figuralar, detallar va buyumlarning kerakli o'lchamlari chizmada qo'yiladi. Buning uchun avval kerakli ko'rsatkichlarning o'lchamlari komp yuterga kiritiladi, ya'ni o'lcham qo'yishning tayyorgarlik kurish boskichi bajariladi.

«Razмеры»-«O'lchamlar» qo'yishga tayorgarlik kurish boskichi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:


1. «Sichqon» yordamida menyular panelidan «Format» yoki «Razmero'» menyusi yuklanib, undagi tegishli «Razmerno'e stili...» yoki «Stil ...» buyrug'iga kiriladi. Shunda ekranda «Menedjer Stilya Izmereniya» darchasi paydo bo'ladi.

2. Bu darchadagi ung tomonda joylashgan buyruqlar orasidan «Izmenit » tugmasi yuklanadi. Ekranda «Izmenit Stil Izmereniya: ISO-25» darchasi paydo bo'ladi.


Avval undagi «Linii i Strelki» vkladka-qo'yilmasi yuklanadi va «Promejutok do linii», «Smehenie ot nachala» va «Razmer Strelki» yacheykalariga tegishli chikarish



chizigini o'lcham chizigidan chikib turish uzunligi, chikarish chizigi bilan kontur chiziq oraligi va strelka o'lchamlari chizmani katta- kichikligiga muvofiq tanlab kiritiladi. Agar bu qiymatlar tegishlich 1.25, 0 va 7 bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.




So`ngra bu darchadagi «Текст» vkladka-qo'yilmasi yuklanib, «Visota Teksta» va «Smehenie ot mernoy linii» yacheykalariga, matndagi shrift balandligi va xarf hamda raqamlar bilan o'lcham chiziqlari orasidagi masofalar kiritiladi. Masalan bu qiymatlar tegishlich 7 va 3 yoki 4 bulsin. «Priravno'vanie teksta» -matnni tekislashdagi «Standart ISO» tugmasi yuklanib, «OK» tugmasi yuklanadi.



Shunda ekranda, dastlabki «Menedjer Stilya Izmereniya» darchasi paydo bo'ladi va undagi «Zakro't » tugmasi yuklanib chizmaga kaytiladi:

3. O'lcham qiymatlarini va chizmadagi yozuvlarni DavST (GOST)ga muvofiq yozilishi uchun menyular qatoridagi «Format» menyusiga kiriladi va undagi «Stil Teksta» buyrug'i yuklanadi. Shunda ekranda «Stil Teksta» darchasi paydo bo'ladi. Undagi «Faktor shirini» va «Ugol naklona» yacheykalariga xarf va raqamlar enining koeffitsienti va ularni katorlar asosiga ogish burchagi, vertikal chiziqka nisbatan kiritiladi. Agar bu qiymatlar tegishlich 0.6 va 15 bo'lsa, yozuvlar 75° ga og`gan xolda yozilish xolatiga o'tib qoladi.



Bu xolatni bevosita «Predvaritelniy prosmotr – «Oldindan kurib kuzatish» yacheykasida kuzatilib, «Stil Teksta» darchasi yopiladi va o'lchamlar qo'yishga tayyorgarlik kurish boskichi yakunlanadi. Sungra berilgan chizmaga qaytib o'lchamlar qo'yishga kirishiladi.

Ekranning ung tomonida joylashgan o'lcham qo'yish asboblari panelidan foydalanib chizmada tasvirlangan geometrik figuralar, detallar va buyumlar elementlarining o'lchamlari, ularni boglovchi o'lchamlar va oxirida gabarit o'lchamlari qo'yiladi. Barcha o'lchamlarning chikarish va o'lcham chiziqlarini hamda o'lcham qiymatlarini kompyuterning o'zi hisoblab chizmaga yozib kuyadi. Shuning uchun o'lchamlarni chizmada kurinimli bo'lishini hisobga olgan xolda joylashtiriladi. Agar unga erishishni iloji bo'lmasa, «Izmenit Stil Izmereniya: ISO-25» darchasiga kirib, undaga «Podgonka» qo'yilma-«vkladka»sini yuklab, o'lchamlarni chizmadagi joylarini o'zgartirib, ularni qo'yilishini kurinimli bo'lishiga erishiladi.

Chizmada chiziqli o'lchamlar, o'lchamlar panelidagi  tugmani, qiya joylashgan elementlarning o'lchamlari esa,  tugmani yuklab qo'yiladi.

Chizmada biror nuqtaning X yoki Y koordinatalarini ko'rsatish lozim bo'lsa,  tugmani yuklab qo'yiladi.

Aylana yoyining radiusi va aylana diametri tegishlicha,  tugmalardan, hamda burchak o'lchamlar,  tugmadan foydalanib qo'yiladi. Agar biror sabab bilan o'lcham ko'rsatkichlarini o'zgartirish kerak bo'lsa, o'lchamlar panelidagi oxirgi  tugmasini yuklab, ekranga dastlabki «Menedjer Stilya Izmereniya» darchasini chaqirish ham mumkin.

Agar biror o'lcham qiymatini yaxlitlab olish yoki unga qo'shimcha yozuv kiritish zarur bo'lsa, menyular qatoridan «Izmenit » menyusi yuklanib, uni darchasidan «Tekst» qo'shimcha buyruq yuklanadi. Shunda ekranda paydo bo'lgan kvadrat nishoncha bilan o'zgartirish kiritiladigan o'lcham bog'lanadi. Ekranda paydo bo'lgan «Redaktor mul tilineynogo teksta» darchasiga kerakli o'zgartirish, masalan Ô100,51 yozuvini, Ô100 yoki Ô101 yozuviga, yoki Ô10 yozuvini «4 tesh. Ô10» yozuviga o'zgartiriladi. Darchadagi «OK» yoki «Enter» tugmasini yuklab, qo'yilgan o'lcham taxrir qilinadi.

AutoCAD 2002 dasturida «Redaktor mul tilineynogo teksta» darchasini quyidagi ketma-ketlikda «Modifikatsiya/Ob`ekt/ Tekst/Redaktirovanie. . .» ekranga chaqiriladi.

O'lcham qo'yish buyrug'idan foydalanib quyidagi 73-rasmdagi vazifa bajarilsin va uning o'lchamlari qo'yilsin.